

**Abu Ali Ibn Sinoning
ta’limiy, axloqiy
qarashlari**

* Abu Ali Ibn Sinoning ta'limiylari axloqiy qarashlari

Abu Ali Ibn Sino ham boshqa zamondosh qomusiy olimlar singari matematika, astronomiya, fizika, kimyo, biologiya, tibbiyot, dorishunoslik, euhshunoslik, fiziologiya, falsafa, filologiya, adabiyot, ta'lim-tarbiya sohalarida ijod etgan va dunyoga mashhur yirik asarlar meros qoldirgan olim.

Abu Ali Ibn Sinoning ta’limiy, axloqiy qarashlari

Ibn Sino jami 450 dan ortiq asarlar yaratgan bo‘lib, bizgacha faqat 242 tasi yetib kelgan. Shu 242 asardan 80 tasi falsafa, ilohiyot va tasavvufga tegishli, 43 tasi tabobatga oid, 19 tasi mantiqqa, 26 tasi psixologiyaga, 23 tasi tibbiyot ilmiga, 7 tasi astronomiyaga, 1 tasi matematika, 1 tasi musiqaga, 2 tasi kimyoga, 9 tasi etikaga, 4 tasi adabiyotga ba 8 ta boshqa olimlar bilan bo‘lgan ilmiy yozishmalarga bag‘ishlangan.

Abu Ali Ibn Sinoning ta'limiylari axloqiy qarashlari

Abu Ali Ibn Sino asarlarida kamolotga erishishning berinchi mezoni sifatida – ma'rifikatga egallahsha da'vat etadi. Chunki ilm-fan insonga xizmat qilib, tabiat qonunlarini ochib avlodlarga yetkazishi kerak. Bu maqsadga erishish uchun inson qiyinchiliklardan qo'rqmasligi zarur, deydi u. “Ey, birodarlar! Odamlarning botiri mushkulotdan qo'rqmaydi. Kamolot hosil qilishdan bosh tortgan kishi odamlarning eng qo'rqog'idir”.

Abu Ali Ibn Sinoning ta’limiy, axloqiy qarashlari

Ibn Sino bolani maktabda o‘qitish va tarbiyalash zarurligini qayd etib, maktabga barcha kishilarning bolalari tortilishi, birga o‘qitilishi va tarbiyalanishi lozim deb, bolani uy sharoitida yakka o‘qitishga qarshi bo‘lgan. Bolaning maktabda jamoa bo‘lib o‘qishining foydasi quyidagicha ifodalanadi:

- agar o‘quvchi birga o‘qisa u zerikmaydi, fanni egallahga qiziqish yuzaga keladi, bir-biridan qolmaslik uchun harakat, musobaqalashish istagi rivojlanadi. Bularning hammasi o‘qishning yaxshilanishiga yordam beradi;
- o‘zaro suhbatda o‘quvchilar bir-biriga kitobdan o‘qib olganlari, kattalardan eshitganlarini hikoya qiladilar;
- bolalar birga to‘planganlarida bir-birini hurmat qila boshlaydilar.

Abu Ali Ibn Sinoning ta'limiy, axloqiy qarashlari

Bilim olishda bolalarni maktabda o‘qitish zarurligini qayd etar ekan, olim ta’limda quyidagi tomonlarga rioya etish zarurligini ta’kidlaydi:

- bolalarga bilim berishda birdaniga kitobga band qilib qo‘ymaslik;
- ta’limga yengildan og‘irga borish orqali bilim berish;
- olib boriladigan mashqlar bolalar yoshiga mos bo‘lishi;
- o‘qitishda jamoa bo‘lib maktabda o‘qitishga e’tibor berish;
- bilim berishda bolalarning mayli, qiziqishi va qobiliyatini hisobga olish;
- o‘qitishni jismoniy mashqlar bilan qo‘shib olib borish.

Abu Ali Ibn Sinoning ta’limiy, axloqiy qarashlari

Ibn Sino o‘qituvchining qanday bo‘lishi kerakli haqida fikr yuritar ekan, shunday yo‘l-yo‘riqlar beradi. Bular quyidagilardan iborat:

- bolalar bilan munosabatda bosiq, jiddiy bo‘lishi,
- berilayotgan bilimning o‘quvchilar qanday o‘zlashtirib olayotganiga e’tibor berish;
- ta’limda turli metod va shakllandan foydalanish;
- fanga qiziqtira olish;
- berilayotgan bilimlarning eng muhimini ajratib bera olish va boshqalar.

***E'tiboringiz uchun rahmat!**